

6-7 YOSHLI BOLALAR BILISH JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Soxiba Sharapova

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 6-7 yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari va ularni shakllantirishning nazariy asoslariga oid ma'lumotlar tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *6-7 yoshli bolalar, bilish jarayonlari, Trening mashqlar, sezgi organlari, qobiliyat, didaktik materiallar, asosiy davrlar.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritishda kimning ilmiy tadqiqoti va asari bo'lishidan qat'i nazar, unda vujudga keladigan xohish, istak hamda niyatning qondirilish, aqliy taraqqiyoti masalalari, individni kamol toptirishga, shakllantirishga qaror qilgan kattalar tomonidan amalga oshiriladi va boshqariladi. Mana shu yosh davrida namoyon bo'ladigan tarbiya jarayonidagi ayrim qiyinchiliklarning tashqi va ichki alomatlari (belgilari) ham psixologik tadqiqotlarda va ilmiy-psixologik adabiyotlarda ko'p marta ta'kidlangan bo'lib, birinchi navbatda o'jarlik, negativizm, qaysarlik, injiqlik kattalarning bolalar nazarida obro'sizlanishi va qadrsizlanishi kabi illatlar bilan bog'liqdir. Qator ilmiy-psixologik manbalarda aytilishicha, shu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari va irodasida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi va bularning hammasi boladagi xudbinlik, o'ziga bino qo'yish, aksilijtimoiy mayl, urinish, qaysarlik, rashk kabi illatlarda yaqqol aks etadi. N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinaning oqilona mulohazalariga qaraganda, bolalardagi injiqliklarning bosh omili atrofdagi odamlarning ular shaxsiga adolatsiz, noto'g'ri, mensimay munosabatda bo'lishidan iboratdir, bizningcha, o'zini tan oldirishga intilish ham bunga sababdir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rgangan A.N.Golubevaning fikricha, noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish unda o'jarlikni paydo qiladi. Shuningdek, bu eshdagi bolalarning o'jarligi doimiy bo'lmaydi, masalan, o'z tengdoshlariga nisbatan o'jarlik qilish ahyon-ahyondagina ro'y beradi, ular asosan katta yoshdagi odamlarga, shunda ham muayyan tarbiyachiga yoki oila a'zolarining birortasiga o'jarlik qiladilar. D.B.Elkoiminning fikricha, bolaning xohishi bilan bu xohishning harakatda ifodalanishi o'zaro mos tushmasligi, kattalar talabiga so'zsiz itoatkorlik uning istagini umumlashtirishga olib keladi, voyaga yetganlar talabiga mos emasligi sababli shunchaki xohish, qat'iy shaxsiy xohish darajasiga o'sib boradi. Odatda "Men xohlayman", "O'zim bajaraman" kabi mustaqillikka intilish harakatlari xohishning kuchayishida o'z ifodasini topadi. Ana shu tariqa bola psixikasida xohishlarning o'zaro uzviy bog'lanishi, motivlar va ularning kurashi yuzaga kela boshlaydi. D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, mazkur o'zgarishlar bevosita idrok qilinadigan buyumlarga qaratilgan

xohishning mantiqan mavhumroq buyumlarga yo'naltirilgan xohishga aylanishidir³⁶?" . Buning asosiy sabablari, bir tomondan, bolada oddiy umumlashtirish uquvining pay do bo'lishi hisoblansa, ikkinchidan, unda nutq faoliyatining jadal sur'atlar bilan rivojlanishidir. Shundan so'ng uning faoliyati jozibador, maftunkor, jimjimador, yaltiroq narsalarning tgashqi alomatlariga va ulami bevosita egallashga aloqador bo'lmay, balki mazkur narsalarning timsoli, tasawur obrazlari, kelgusida shulaming hammasini o'zlashtirish istagi asosiga quriladi. Bolaning orzu-istagi doirasidagi hali foydalanilmagan yangi, yashirin, ammo ro'ebga chiqadigan imkoniyatlar uning kattalar bilan munosabatida, muomalasida, muloqotida, o'zining shaxsiy faoliyatida, his-tuyg'usining mazmuni va rivojlanishidagi keskin, muhim o'zgarishlar uchun zarur shart-sharoitlar sifatida xizmat qiladi. Undagi tasawur bilan uzviy bog'liq his-tuyg'ular xohishni qondirishda oldindan taajjublanish jaraeniga keng istiqbollar yaratadi. Boladagi mavjud his-tuyg'ular xohishni qondirishni bevosita aks ettirish bilan kifoyalanib qolmaydi, balki kelgusida amalga oshirish mo'ljallangan faoliyatning ahamiyatini ham o'zida mujassamlantiradi. Shuning uchun bolaning quvonchi bilan qayg'usi dafatan qanday maqsadni ko'zlashga (amalga oshirishga) yo'nalganida emas, balki qaysi faoliyatni (ishni) rejalashtirgani bilan uzviy bog'liqdir. Bolaning xohish va istagidagi ayrim o'zgarishlar, ulaming tasawurlar bilan birlashuvi maktabgacha eshdagi sub'ektlarda faoliyatning yangi ko'rinishlari (rolli o'yinlar, ijodiy, tasviriy va konstruktiv faoliyat, sodda mehnat faoliyati) keng ko'lamda rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit hisoblanadi. Bola o'zining faoliyatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tasawur obrazlaridan amaliy foydalanish bilan chegaralanib qolmay, ularga nisbatan o'zining shaxsiy emotsional munosabatini ham bildiradi. Bolaning intellekti faoliyat asosida narsalardan foydalanish tajribasi asosida shakllanadi. Ob'ektlarni bilish uchun sub'ekt ular bilan birga harakat qilishi kerak: tutib qolish, ushlab ko'rish, yaqinlashish, yo'q qilish, aralashtirish, taqqoslash va boshqalar. Barcha egallagan tajriba faoliyat chizmasi ko'rinishida saqlanadi. Faoliyat chizmasi - J.Piaje ta'limotidagi juda muhim tushunchalardan biridir. So'zning tor ma'nosida harakat chizmasi tushunchasi bu umumiy bo'lib, turli vaziyatlarda ko'p marta takrorlanuvchi harakatda saqlanadi. So'zning keng ma'nosida- harakat chizmasi- bu ma'lum bir darajadagi aqliy rivojlanish tuzilmasidir. Ma'lum bir bosqichda harakatning umumiy chizmasini rivojlanishini operatsiyaga (operant tuzilishga) aylanadi. SHuning uchun J.Piaje ta'limoti operatsional deb ataladi. Operatsiya- bu tizimda qaytariluvchan va guruhlariga ajratilgan ichki predmetli harakatdir. Fikrlash faoliyatini tuzishi hayot davomida shakllanadi egallagan tajribaga ega bo'lib, rivojlanishning turli bosqichlarida sifat jihatdan farqlanadi. Assimilyatsiya va akkomadatsiya jarayonlari ontogenezdagi aqliy rivojlanishni uzluksizligi va ketma-ketligini ta'minlaydi, fikrlash harakatlarini (tuzilishi) tashkillashning o'ziga xosligi esa intellektning ajratilgan bosqichlarini aniqlaydi. J.Piajega ko'ra, psixikani rivojlanish -bu etakchi

³⁶ Osobeimosti psixicheskogo razvitiya detey 6-7 letnegov vozrasta D. B. Elkonin, A.L. Venger tahriri ostida. — M., 1988 y. 123-125-betlar

intellektual ko'rinishlarini o'zgarishidir. Har bir bosqich boshqasining ustiga ko'riladi, ulaming har biri keyingilarini shakllanishi uchun zarur, shuning uchun ulaming (borish) kechish tartibi qayd qilingan va shunday belgilangan ulami yuz berish tezligi esa har xil bo'lishi mumkin. Tajriba egallashning qulay yoki nomaqbul imkoniyatlaridan madaniy va ilmiy sharoit sifatida bog'liqlikda. Inson intellektini rivojlanishi: rivojlanishning davr va bosqichlari. J.Piaje rivojlanishning uchta asosiy davrlarini ajratgan:

1. Sensamotor intellekt (tug'Ugandan 1,5 yoshga qadar)
2. Aniq operatsion (reprezentativ) intellekt (1,5-2yoshdan 11 yoshga qadar)
3. Formal (rasmiy) - operatsion intellekt (11-12 yoshdan 14-15 yoshga qadar)

J.Piaje har bir bosqichni ikki yo'l bilan ta'riflaydi: ijobiy (oldingi darajadagi tuzimini murakkablashishi defferentsiyatsiya (farqlanish) natijasi sifatida) va salbiy (keyingi bosqichlarda bartaraf etiladigan o'ziga xoslik va kamchiliklar nuqtainazarida)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Osobeimosti psixicheskogo razvitiya detey 6-7 letnegov vozrasta D. B. Elkonin, A.L. Venger 1988 y
2. " 6 YOSHLI BOLALAR BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA TRENINGLARNI QO'LLASH" "Научный имплус" часть 3 Москва-2023
3. Болотникова О.П „ФОРМИРОВАНИЕ У ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ УМЕНИЯ
4. Bruner Dj.O poznavatelnom razvitii: Issledovanie razvitiya poznavatelnoy deyatelnosti. M., 1971.
5. Davidov V. V. Novoe issledovaniya v oblasti detskoj psixologii. —Issledovanie razvitiya poznavatelnoy deyatelnosti kitobida. M., 1971
6. Ergash G'oziyev, Shoxista Samarova Bolalar psixologiyasi Toshkent "Mumtoz so'z" 2002-yil